HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ANALYSIS OF LENDING PROCESSES AND FINANCING INDICATORS IN COMMERCIAL BANKS

Rakhmanova Laylo Baxodirovna
Doctoral Researcher, Department of Economics and Management
Faculty of Chemical and Metallurgical Engineering
Navoi State University of Mining and Technologies
Navoi, Uzbekistan
E-mail: rlaylo120685@mail.com
Tel.: +998 99 412 28 82

Abstract: This article analyzes the lending process in commercial banks and its key financial indicators. It describes in simple terms the stages from application to loan repayment, including application approval, creditworthiness verification, contract execution, and loan performance monitoring. It also examines the metrics banks focus on in their operations, including loan volume, revenue generated, and the proportion of borrower delinquencies.

Keywords: commercial banks, lending, lending process, financial indicators, creditworthiness, credit risk, delinquency, bank income, banks of Uzbekistan, credit analysis.

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARI VA MOLIYALASHTIRISHNING KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz tijorat banklarida kredit berish jarayoni qanday amalga oshirilishi va bu jarayondagi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qildik. Maqolada kredit olish uchun murojaat qilishdan tortib, qarzni to‘lashgacha bo‘lgan bosqichlar – arizani qabul qilish, mijozning to‘lov qobiliyatini tekshirish, shartnoma tuzish va kreditni nazorat qilish kabi oddiy tilda yoritilgan. Shuningdek, banklar o‘z faoliyatida qanday ko‘rsatkichlarga e’tibor berishi – qancha kredit bergani, qancha daromad olgani, qarzdorlar tomonidan kechiktirilgan to‘lovlar ulushi qancha ekanligi kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: tijorat banklari, kreditlash, kredit olish tartibi, moliyaviy ko‘rsatkichlar, kredit qobiliyati, kredit xavfi, kechiktirilgan qarzlar, bank daromadi, O‘zbekiston banklari, kredit tahlili.

Аннотация: В данной статье проанализировано, как осуществляется процесс кредитования в коммерческих банках, и основные финансовые показатели этого процесса. В статье простым языком описаны этапы от подачи заявки на кредит до погашения задолженности – одобрение заявки, проверка платежеспособности клиента, заключение договора и контроль за исполнением кредита. Также анализируется, на какие показатели банки обращают внимание в своей деятельности – объем выданных кредитов, полученный доход, доля просроченных платежей от заемщиков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитование, процедура кредитования, финансовые показатели, кредитоспособность, кредитный риск, просроченная задолженность, доход банка, банки Узбекистана, кредитный анализ.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va aholi farovonligini oshirishda tijorat banklarining kreditlash faoliyati muhim o‘rin tutadi. Banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga, tadbirkorlik subyektlariga va aholiga ajratiladigan kredit resurslari iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, tijorat banklarida kreditlash jarayonlarining samaradorligini oshirish va moliyalashtirish ko‘rsatkichlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish, ichki bozorda talabni rag‘batlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, Murojaatnomada kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so‘m resurs ajratilishi, shundan 43 trillion so‘mi xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi qayd etilgan. Shuningdek, 2026-yilda “mahallada sanoat va xizmat” loyihasi orqali 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalarini ishga tushirish uchun 5 trillion so‘m kredit berilishi belgilangan[1].

Ushbu Murojaatnoma asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son qarorida Murojaatnomada ilgari surilgan g‘oyalar, tashabbuslar va takliflar Qonunchilik palatasining kelgusi faoliyati uchun asos sifatida qabul qilindi[2]. Qarorda 2026-yilda mahalla infratuzilmasini yaxshilash, iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish, ichki bozorda talabni rag‘batlantirish kabi 6 ta ustuvor yo‘nalish belgilab berilgan.

Asosiy qism. Tijorat banklarining faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallaydi. Kreditlash jarayoni - bu bank va qarz oluvchi o'rtasida kredit munosabatlarining vujudga kelishi, rivojlanishi va tugatilishini o'z ichiga olgan murakkab tizimli jarayondir. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiyotni kredit resurslari bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kreditlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchi bosqichda mijoz bankka kredit olish uchun ariza va zarur hujjatlar to'plamini taqdim etadi. Bank xodimlari tomonidan mijozning moliyaviy holati, daromad manbalari, kredit tarixi va to'lov intizomi dastlabki o'rganiladi. Ikkinchi bosqichda mijozning kredit qobiliyatini baholash amalga oshiriladi. Bu bosqichda mijozning moliyaviy holati, uning daromadlari va xarajatlari tahlil qilinadi. Kredit qobiliyatini baholashning zamonaviy usullaridan biri skoring tizimi bo'lib, u mijozning kredit tarixi, bandlik holati, daromad darajasi va boshqa ko'rsatkichlar asosida uning kreditga layoqatliligini aniqlash imkonini beradi[3]. Uchinchi bosqichda garovni baholash va ta'minotni rasmiylashtirish amalga oshiriladi. Kredit summasi ma'lum chegaradan oshgan hollarda banklar garov yoki kafil talab qiladilar. Garov ob'ekti mustaqil baholovchi tashkilotlar tomonidan baholanadi va garov shartnomasi tuziladi. To'rtinchi bosqichda kredit shartnomasi tuzilib, unda kredit summasi, foiz stavkasi, muddat, to'lov jadvali, garov shartlari va tomonlarning huquq hamda majburiyatlari belgilanadi[4]. Shartnoma bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Beshinchi bosqichda kredit mablag'lari ajratiladi va monitoring o'rnatiladi. Ushbu bosqichda kredit mablag'lari mijozning hisob raqamiga o'tkaziladi va uning maqsadli

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son “o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va o‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida“gi qarori / https://president.uz/oz/lists/view/8834

[2] https://lex.uz/uz/docs/-8006623

[3] Toshmatov E.G., Jo'rayev O'.T. Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirish. – T.: Iqtisodiyot, 2023.

[4] O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 1996-yil 25-aprel.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ishlatilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatiladi. Bank kreditdan foydalanish jarayonini, to'lov intizomini va garov holatini muntazam ravishda tekshirib boradi[5].

Kreditlar muddat bo'yicha uch turga bo'linadi: qisqa muddatli - 1 yilgacha, o'rta muddatli - 1 yildan 3 yilgacha va uzoq muddatli - 3 yildan ortiq. Qisqa muddatli kreditlarga avans, kontokorrent va lombard kreditlari kiradi. Uzoq muddatli kreditlar esa asosan investitsion loyihalar, asosiy fondlarni yangilash va uy-joy qurilishini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Kreditlash jarayonining har bir bosqichi o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birining samarasiz tashkil etilishi butun jarayon natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, banklar kreditlash jarayonining barcha bosqichlariga alohida e'tibor qaratadilar va ularni doimiy ravishda takomillashtirib boradilar.

Eng yirik kredit portfeliga ega banklar - O'zmilliybank (104,83 trln so'm), Agrobank (73,74 trln so'm), Xalq banki (64,15 trln so'm), Qishloq qurilish banki (59,36 trln so'm) va Asakabank (33,91 trln so'm) hisoblanadi. Ushbu banklarning kredit portfelida asosan ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo'jaligi subyektlari va kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi[6]. Kredit portfelini sifatli boshqarish risklarni aniqlash va nazorat qilish jarayonini o'z ichiga oladi. Zamonaviy banklar kredit portfelini nafaqat individual kreditlar, balki uning segmentlari va ular o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan ham tahlil qiladilar. Portfeldagi muammoli kreditlar ulushining ortishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun banklar kreditlarni ajratishda diversifikatsiyaga alohida e'tibor qaratadilar.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda bir qator moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar bankning moliyaviy holati, rentabelligi, likvidligi va risk darajasini aniqlash imkonini beradi. Kreditlash samaradorligini baholashda asosan kredit investitsiyalarining rentabelligi, muddati o'tgan qarzlar ulushi, kredit xavfi koeffitsientlari va kredit-depozit nisbati (LDR) kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. O'zbekiston tijorat banklarining 2025-2026 yillardagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarini quyidagi jadval asosida ko'rib chiqish mumkin.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (2025-2026 yy.)[7]

Ko'rsatkichlar	2025-yil I chorak	2026-yil I chorak	O'zgarish (+/-)
Bank aktivlari (trln so'm)	924,0	959,4	+35,4
Sof foyda (trln so'm)	3,4	5,5	+2,1
Kredit portfeli (trln so'm)	534,0	582,21	+48,21
Jami depozitlar (trln so'm)	341,0	371,45	+30,45
Kredit-depozit nisbati (LDR) (%)	156,6	156,7	+0,1
ROA (aktivlar rentabelligi) (%)	0,37	0,57	+0,20
ROE (kapital rentabelligi) (%)	5,8	9,2	+3,4

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2026-yil birinchi choragida bank tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan. Bank aktivlari 959,4 trln so'mgacha (+3,8%) o'sgan bo'lsa, sof foyda deyarli 62 foizga oshib, 5,5 trln so'mga yetgan. Kredit portfeli 582,21 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga

[5] O'sha joyda
[6] O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-yil I chorak hisoboti. – https://cbu.uz
[7] O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-yil I chorak hisoboti. – https://cbu.uz Markaziy bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

nisbatan 48,21 trln so'mga oshgan. Jami depozitlar hajmi 371,45 trln so'mga yetgan. Kredit-depozit nisbati 156,7% ni tashkil etib, bu kreditlashning depozit bazasiga nisbatan yuqori darajada qolayotganini ko'rsatadi. ROA ko'rsatkichi 0,37% dan 0,57% ga, ROE ko'rsatkichi esa 5,8% dan 9,2% ga oshgan. Bu ko'rsatkichlar bank tizimining samaradorligi oshganligidan dalolat beradi. Xususan, sof foydaning keskin o'sishi banklarning kredit operatsiyalaridan olgan daromadlari ortganini, ROA va ROE ko'rsatkichlarining o'sishi esa bank aktivlari va kapitalidan samarali foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq, 2026-yilda tijorat banklari orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishga katta miqdordagi kredit resurslari yo'naltirilishi rejalashtirilgan[8]. Xususan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so'm, xizmat ko'rsatish sohasiga 85 trillion so'm, iste'mol kreditlari uchun 125 trillion so'm, ipoteka kreditlari uchun 23 trillion so'm, mahallalarda ishlab chiqarish loyihalari uchun 5 trillion so'm, mahalla loyihalari uchun 7,5 trillion so'm va ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish uchun 7 trillion so'm ajratilishi belgilangan. Quyidagi jadvalda ushbu kredit resurslarining yo'nalishlari va ularning asosiy maqsadlari aks ettirilgan.

2-jadval

O'zbekiston tijorat banklarining 2026-yilda kredit resurslarini taqsimlash yo'nalishlari[9]

Moliyalashtirish yo'nalishlari	Ajratiladigan mablag' hajmi	Asosiy maqsadi
Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish	140 trln so'm	Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash
Xizmat ko'rsatish sohasi	85 trln so'm	Servis iqtisodiyotini rivojlantirish
Iste'mol kreditlari	125 trln so'm	Ichki talabni rag'batlantirish
Ipoteka kreditlari	23 trln so'm	Uy-joy bozorini rivojlantirish
Boshqa yo'nalishlar	19,5 trln so'm	Turli ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari kredit siyosatida asosiy ustuvor yo'nalish sifatida real sektorni moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun ajratilayotgan 140 trillion so'mlik kredit resurslari iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bank kreditlash tizimining strategik ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasiga ajratilayotgan 85 trillion so'mlik kredit resurslari servis iqtisodiyotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. Turizm, transport, IT xizmatlari, logistika, elektron savdo va ta'lim xizmatlari kabi yo'nalishlarda bank kreditlariga talab ortib bormoqda. Bu esa tijorat banklari kredit portfelida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi ortishiga sabab bo'lmoqda.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son “o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va o‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida“gi qarori / https://president.uz/oz/lists/view/8834

[9] Markaziy bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

So'nggi yillarda tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish va zamonaviy fintech texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalar kredit ajratish jarayonlarining tezkorligini oshirish, inson omilini kamaytirish, kredit risklarini aniq baholash hamda bank xizmatlarining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Murojaatnomasida qayd etilganidek, mamlakatda fintech va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun 270 million dollar investitsiya jalb qilingan bo'lib, Markaziy bank huzurida Fintech ofisi va Innovatsion hab tashkil etilishi belgilangan. Bu esa bank tizimini raqamlashtirish orqali kreditlash mexanizmlarini zamonaviylashtirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tijorat banklari kreditlash tizimini modernizatsiya qilish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. 2026-yilga kelib bank tizimi aktivlari 959,4 trln so'mga yetgan, sof foyda 62 foizga oshgan, kredit portfeli 582,21 trln so'mni tashkil etgan. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasi, ipoteka va iste'mol kreditlari kabi yo'nalishlarda kredit resurslari hajmi sezilarli darajada oshirilgan. Prezidentimiz Murojaatnomasida belgilangan vazifalar va tegishli qarorlar asosida tijorat banklari kreditlash tizimini yanada takomillashtirish, real sektorni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va aholi farovonligini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlarni kamaytirish, risk-menejment tizimini takomillashtirish hamda raqamli kreditlash texnologiyalarini keng joriy etish bank tizimining kelgusidagi ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Raqamli transformatsiya, fintech texnologiyalari va sun'iy intellektdan foydalanish kreditlash jarayonlarining samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish imkonini beradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy resurslar bilan ta'minlovchi asosiy institut sifatida muhim o'rin tutadi. Kreditlash jarayonlari iqtisodiy o'sish, investitsion faollik va tadbirkorlik rivojlanishini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarining kreditlash faoliyati so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashgan.

Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini yanada takomillashtirish va moliyalashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Birinchidan, kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish. Tijorat banklarida mijozlarning kredit qobiliyatini baholashda zamonaviy skoring tizimlari, Big Data texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tahliliy platformalarni joriy etish tavsiya etiladi. Bu noto'g'ri kredit qarorlari qabul qilinishining oldini oladi va muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kredit monitoring tizimini takomillashtirish, kreditdan foydalanish jarayonini real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

- Ikkinchidan, muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarini yaxshilash. Muddati o'tgan qarzlarni qaytarish bo'yicha mijozlar bilan individual ishlash tizimini joriy etish, restrukturizatsiya jarayonlarini soddalashtirish va sudgacha bo'lgan tartiblarni takomillashtirish zarur. Banklar tomonidan muammoli aktivlarni boshqarish bo'yicha maxsus bo'linmalar faoliyatini kuchaytirish va ularning samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, qarzdorlar bilan muzokaralar olib borish, ularning moliyaviy ahvolini tiklashga ko'maklashish va qarzni qaytarishning muqobil usullarini taklif qilish orqali muammoli kreditlar hajmini kamaytirish mumkin.

- Uchinchidan, garov ta'minoti tizimini takomillashtirish. Garov ob'ektlarini baholashning yagona standartlarini joriy etish, garovni ro'yxatga olish va sotish jarayonlarini soddalashtirish lozim. Garov bozorining shaffofligini oshirish va garov qiymatini ob'ektiv baholash mexanizmlarini yaratish

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

banklar uchun kredit xavflarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, garov sifatida qabul qilinadigan mol-mulk turlarini kengaytirish va ularni baholashda xalqaro standartlardan foydalanish tavsiya etiladi.

- To'rtinchidan, bank tizimini raqamlashtirishni yanada kengaytirish. Barcha tijorat banklarida raqamli kreditlash tizimlarini joriy etish, mobil ilovalar va online platformalar orqali kredit xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Prezident Murojaatnomasida belgilanganidek, Markaziy bank huzurida Fintech ofisi va Innovatsion hab tashkil etilishi, sun'iy intellekt laboratoriyalarining tashkil etilishi bu borada muhim qadam bo'ladi. Banklarda "onlayn-kreditlash tizimi"ni joriy etish, hujjatlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash, kredit shartnomalarini raqamli imzo bilan rasmiylashtirish amaliyotini kengaytirish lozim. Bu kredit ajratish jarayonini tezlashtiradi, byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va bank xizmatlarining shaffofligini oshiradi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish tijorat banklarida kreditlash jarayonlarining samaradorligini oshirish, moliyalashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilash, kredit risklarini minimallashtirish va bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va aholi farovonligining oshishiga olib keladi. Prezidentimiz Murojaatnomasida belgilangan vazifalar va tegishli qarorlar asosida bank kreditlash tizimini yanada takomillashtirish Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son “o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va o‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida“gi qarori / https://president.uz/oz/lists/view/8834

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to'g'risida"gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 1996-yil 25-aprel.

4. Toshmatov E.G., Jo'rayev O'.T. Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirish. – T.: Iqtisodiyot, 2023.

5. Karimov A.A., Raximov B.Sh. Bank kredit portfelini boshqarish. – T.: Moliya, 2024.

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-yil I chorak hisoboti. – https://cbu.uz